

Bunyodkorlik loyihalari muhokama qilindi



Ozzbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-iyul kuni madaniyat, tibbiyot, savdo va xizmat ko'rsatish inshootlari

qurilishiga oid loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Avval xabar berilganidek, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida zamonaviy kutubxona barpo etilishi rejalashtirilgan. Uning dastlabki tarxi bir oy avval taqdimot qilingan, bugungi kunda davlatimiz rahbarining tavsiyalari asosida takomillashtirilgan.

Masalan, kutubxona binosining tashqi ko'rinishi yurtimizdagi qadimiy obidalarga uyg'un tarzda loyihalashtirilgan. Ulkan kitob fondini saqlash, mutolaa, madaniy hordiq chiqarish, turli tadbirlar o'tkazish bilan bog'liq barcha jihatlar inobatga olingan.

Taqdimotda kutubxona loyihasi batafsil ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbariga onkologiya va gematologiya shifoxonalarini tashkil etish bo'yicha qilinayotgan ishlar to'g'risida ham ma'lumot berildi.

Ma'lumki, shu yil 27-may kuni "Ahолига гематология ва онкология хизматларини ко'рсатиш тизимини янада тақомиллаштириш то'г'рисида" Prezident qarori qabul qilingan edi. Ushbu qarorga muvofiq, Respublika onkologiya va radiologiya tibbiyat markazi uchun yangi inshoot qurish belgilangan.

Shu maqsadda Toshkent tibbiyat akademiyasi klinikasi hududidan 5 gektardan ziyod yer ajratilgan. Xorijiy tibbiyat muassasalarining ilg'or tajribasi, shifokor va bemorlar uchun barcha sharoitlar hisobga olinib, loyiha ishlab chiqilgan. Xususan, bu borada Koreya Respublikasining "Daedong Medical Consulting" kompaniyasi bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda. 50 dan ortiq konsalting korxonalarini o'z ichiga olgan ushbu kompaniya Koreya va xorijiy mamlakatlarda 600 dan ortiq muassasalar qurilishida ishtiroy etgan.





Prezidentimiz qarori asosida gematologiyani rivojlantirish borasida ham sifat o'zgarishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi alohida markaz sifatida ajratilib, kelgusi yildan boshlab Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot

markazidan mustaqil tarzda faoliyat yuritadi. Bu ikki markaz Toshkent shahri Chilonzor tumani Arnasoy ko'chasida yangi qurilgan zamonaviy binolarga joylashtiriladi.

Taqdimotda ushbu markazlarni yangi binolarga ko'chirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar qayd etib o'tildi. Bugungi kunda har ikkala markazdagi barcha xonalar zarur uskuna va mebel bilan jihozlangan. Har bir o'rinn kislorod nuqtalari bilan ta'minlangan. Kunlik 100 qatnovga mo'ljallangan ambulator poliklinika va statsionar bo'limlar tashkil etilgan. Optik tolali internet asosida ishlovchi elektron shifoxona dasturi joriy etilmoqda.

Shuningdek, bu yerda bakteriologik, virusologik laboratoriylar va vivariy uchun binolar qurilishi rejolashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi farmoniga muvofiq, "Termiz" erkin iqtisodiy zonasini hududida Termiz xalqaro savdo markazi tashkil etilmoqda. Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida uning bosh rejasini ko'zdan kechirgan edi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
MATBUOT XIZMATI

Umumiy qiymati 75 million dollar bo'lgan ushbu markaz ulkan va ko'p tarmoqli bo'ladi. U yerda 1 ming 800 ta savdo nuqtasi, qariyb 1 million tonna yuk sig'imiga ega logistika markazi va omborxonalar, 1 ming 600 kvadrat metrlik eksport markaz, shuningdek, ikkita mehmonxona, xostel, shifoxona, avtomobil ustaxonalarini va boshqa ob'ektlar barpo etiladi.

Markaz uchun Termiz tumanidan 26 gектар maydon ajratilib, qurilish ishlari boshlab yuborilgan. Korpuslarning birinchi qavatida savdo nuqtalari, ikkinchi qavatida yengil ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirilishi ko'zda tutilgan.

Xalqaro savdo markazida maxsus soliq va bojxona rejimi, 10 kungacha vizasiz tartib, "yagona darcha" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Natijada ishlab chiqarish ham, savdo ham rivojlanadi. Markazning yillik savdo aylanmasi 500 million dollar, eksport quvvati 200 million dollar bo'lishi

mo'ljallangan. Bu yerda jami 5 ming 600 dan ziyod ish o'rni yaratilishi mumkin.

Tadbirda Toshkent shahrida davlat ob'ektlaridan samarali foydalanish, Namangan viloyatida yo'l bo'ylarida savdo va xizmat shoxobchalari tashkil etish borasidagi rejalar ham muhokama qilindi.

Manba